ALALIYA NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALAR NUTQINI O'STIRISH BO'YICHA KORREKSION ISH TEXNOLOGIYASI

Oripova Zilola- Defektolog

Annotatsiya. Maqolada alaliya nutq kamchiliklari bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan nutq o'stirish bo'yicha korreksion ish texnologiyalari haqida ma'lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so'zlar: alaliya, nutq va muloqot, psixoterapiya, PECS kartochkalari, exolaliya, apraksiya, mutizm, prosodika.

Kirish

Alaliya - bu nutqning tizimli rivojlanmaganligi yoki umuman yo'qligi hisoblanadi. Asosiy sabablarga hayotning dastlabki 2-3 yilida yoki ona qornida paydo bo‘lgan miya nutq zonalarining organik shikastlanishlari kiradi. "Alaliya" tashxisini nevropatolog va psixiatr qo‘yib beradi. Logopediyada bu holat nutqning umumiy rivojlanmaganligi (NUR) deb ataladi.

Alaliya uchun quyidagilar xos:

agrammatizmlar; tovushlarni buzish; nutqning kech paydo bo‘lishi; bo‘g'inlar tuzilishining buzilishi; kichik lug‘at boyligi; fonematik jarayonlarning buzilishi.

Sabablari:

gipoksiya;
chala tug‘ilganlik;
TORCH-sindrom;
perinatal patologiya;
chaqaloqlar asfiksiyasi;

Irsiy moyillik ham ahamiyatga ega: nutq kam rivojlangan bolalarda ko‘pincha miyaning nutq sohalariga ta'sir qiluvchi irsiy omillar kuzatiladi. Bosh miyaning organik shikastlanishida erta yoshda neyronlarning rivojlanishi sekinlashadi, bu esa nutq funksiyasining buzilishiga olib keladi.

Alalik bolalar nutqini rivojlantirishda logopedik ta'sir nutq tarkibini ongli tahlilini tarbiyalash, fonematik idrokni rivojlantirishga, nutq tarkibini tushunishga qaratilgan bo‘ladi. Passiv lug‘atni to‘plash ustida rejali ish olib boriladi, bir vaqtning o‘zida o‘z nutqi rivojlantiriladi. Nomi bo‘yicha bola rasmlarni ko‘rsatadi, harakatlarni bajarishni ko‘rsatib beradi. Harakatlar kompleksi o‘rganiladi. Bola asta-sekin avval pedagogning nutqiy nazorati ostida o‘rgangan tartibi bo‘yicha bajaradi, so‘ng ayri ayrim, har yeriga odatlanadi: “qo‘lni ko‘tar, yonga ...”.Hissiy – o‘yin jarayoni davomida tovushlarga qiziqish tarbiyalanadi. Bola bu jarayon davomida tovush tabiatini aniqlash, tovush kelayotgan joyni aniqlash, berkitilgan ovozli o‘yinchoqni

topish, tovush signalini kuchi, davomiyligini aniqlashga, ma'lum tovushlarga nisbatan reaksiya ko'rsatishga o'rganib boradi. Bola tushunadigan so'zlarni jamlashda, bola bir vaqtni o'zida shu so'zni eshitish, ko'rishi (rasm), predmetni ushlab ko'rishi va talaffuz etish alohida o'rin tutadi. So'z va predmet o'rtasidagi bog'liqlik eshituv va ko'ruv sezgilarini bir necha marotaba taqqoslab ko'rilganidagina amalga oshiriladi. So'zni tushunchaga aylantirish uchun so'z bilan umumlashtiruvchi ahamityani kasb etish uchun oddiy takrorlashdan tashqari imkonicha, ko'p shartli aloqalarni, ko'pincha harakatli aloqalarni ishlab chiqish muhimdir.

Predmetli amaliy faoliyat davomida bolalar nutqiy instruksiya asosida predmet bilan ko'pgina topshiriqlarni bajarish ko'nikma malakasini egallaydilar: sutni ich, sutni piyolaga quy, sutni puflab sovut. Harakat bilan ifodalangan yuqoridagiga o'xshash so'zlar ona tilining grammatik andozalarini egallashga yordam beradi. Imkoniyatga qarab, bolani erta so'z birikmalari va iboralarni idrok qilishga o'rgatadilar. Odatda dastlabkilari standartlashgan bo'ladi: so'z o'zgarmagan ohang bilan ma'lum tartibda talaffuz etiladi. Bolaga murojaat qilinuvchi ko'rsatmalar kundalik-maishiy xarakterga egadir. Avval u faqat bir kishini tushunishga odatlanadi, so'ng bolaning o'suvchi imkoniyatlariga qarab bu ishga uning atrofidagi kattalar jalb etiladi.Ibora o'z- o'zidan tushunilmaydi, bolaning nerv tizimiga birmuncha umumiy ta'sir etishning bir qismi singari tushuniladi. Iboralarni tushunish avval faqat vaziyatli, ma'lum detallarga bog'liq bo'ladi, shu sababli so'z tartibini o'zgartiradi. Iboralarni gapirishda ohang tavsiya etilmaydi. Bola quyidagilarga o'xshash nutqiy buyruqlarni tushunishga o'rgatiladi: "eshikni och", "ro'molni ol", "kitobni olib kel", "stulga o'tir" Yuqorida keltirilgan nutqiy buyruqlarga o'xshash buyruqlarni tushunishga o'rgatish ishlarida bolaga mujassam ko'ruv-obrazli-harakatli vaziyatni nutq bilan bog'lagan holda tushunishda imo-ishora, mimikalardan foydalaniladi. Idrok qilish imkoniyati sekin rivojlanadi, tushunish ko'ruv va taktil-vibratsiya analizatori tomonidan tayyorlanganidan so'ng mumkin bo'ladi: fonatsiyada ovoz boylamlarini sezish. Asta-sekin eshituv va harakat differensatsiyalari aniqlanadi, bolaning o'z nutqi va tushunishi tarbiyalanadi. Dastlab akustik noaniqliklar yo'qoladi, keyinroq o'z nutqidagi xatolar barham topadi. Fonematik idrok, nozik akustik differensatsiyalar rivojlanishiga qarab, o'z nutqini shakllantirish mumkin bo'ladi.

"Kim diqqatliroq?" o'yini

O'yinning maqsadi: Tovushlarni eshitib farklashga o'rgatish,fonematik idrokni rivojlantirish. O'yinni jixozlash:Tegishli tovushga oid rasmlar.

O'yinning borishi: Bolalar stol atrofida utiradilar. Logoped: - hozir sizlarga rasmlar kursataman va nomini aytaman ,sizlar esa diqqat bilan eshitib,barcha so'zlar

uchun umumiy bulgan tovushni topasizlar.Kim topsa kulini kutarib javob beradi-deb bolalarga o'yinning shartini tushuntiradi.

"Kim ko'proq so'z topadi?" o'yini

O'yinning maqsadi: Tovushlarni farklashga o'rgatish.

O'yinning borishi: Logoped biror tovushni aytadi va bolalardan ushbu tovushga oid so'z topish kerakligini so'raydi. Keyin bolalar doira shaklida turadilar. Ishtiroqchilardan bittasi koptokni birorta bolaga qarata uloqtiradi. Koptokni ilib olgan bola tovush ishtirokidagi birorta so'zni aytishi kerak. Javob bergan bolaga fishka beriladi. Javob berolmagan yoki aytilgan so'zni qaytargan bolaga fishka berilmaydi. g'olib fishkalar soniga qarab aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o'yinlar aqliy tarbiya berish metodi bo'lib, bu metod vositasida bolalarning diqqat, xotira, kuzatuvchanlik, topqirlik kabi psixik sifatlari tarkib toptiriladi. Didaktik o'yinlar bolalarning bilimlarini ular uchun oson va qiziqarli shaklda mustahkamlash, nutqni o'stirishning, so'z boyligini faollashtirishning muhim metodlaridir. Har bir didaktik o'yin o'zining dastur mazmuniga ega bo'lib, u buyumlar haqidagi bilimlarni mustahkamlaydi. Logoped lugat ishini rejalashtirayotganida bolalar bilan maxsus ishlashni talab etadigan so'zlarni aniqlashi va bu so'zlarni o'rgatish usullarini tanlashi zarur. Alaliyali bolalar nutqini o`stirish bo`yicha korreksion tehnologiyalar asosan bolalarning aqliy faoliyatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi vosita sifatida foydalanish bilan bir qatorda nutqni o'stirish, atrof- muhit bilan tanishtirishda keng qo'llaniladi. O'yin shaklida o'tkaziladigan mashqlar esa bolalarning diqqatini o'ziga jalb qiladi, qiziqtiradi, natijada bolalar o'zlarini qiynamay, majbur qilmay takrorlash lozim bo'lgan so'z yoki harakatlarni osonlik bilan takrorlaydilar. Natijada alalik bolalarning so'z boyligini orttirish, tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni mashq qildirish, so'z intonatsiyasini to'g'ri ifodalay olishga o'rgatish imkoniyati paydo bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андреева Г.М. Социальная психология. М.: Аспект Пресс, 1999. -376с.
2. Арушанова А.Г. Речь и речевое общение детей: Кн. для воспитателей д/с. М.: Мозаика - Синтез, 1999. - 222 с.
3. Sadirdinovna, V. M. (2023). FEATURES OF THE FORMATION OF IMITATION OF SPEECH IN CHILDREN WITH ALALIA SPEECH DEFECTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(12), 1001-1004.

4. KHURSHIDAKHAN, R., & ZUKHRA, S. (2024). The Essence Of Using Innovative Methods In The Educational Process. American Journal of Advanced Scientific Research, 1(8), 303-307.
5. Vokhobova Munira Munojat Pòlatova Azamatovna. Alalia as dysontogenesis of speech development.Galaxy international interdisciplinary research journal
6. Sadirdinovna, Vokhobova Munirakhan. "CORRECTIVE PEDOGOGICAL WORK CARRIED OUT IN STUTTERING CHILDREN." Open Access Repository 9.12 (2023): 372-375.